
XODIMLAR O'RTASIDA TARG'IBOT VA TASHVIQOT ISHLARI AMALGA OSHIRILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2023 yil 20 yanvardagi PQ - 10-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining farmoyishiga asosan 2023 yilning 15 fevral kundan 15 mart kuniga qadar Ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida "Yo'l harakati xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda.

Jumladan, Toshloq tumani Ichki ishlar bo'limi xodimlari bilan o'tkazilishi belgilangan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida xodimlar tomonidan yo'l harakati qoidalariga to'liq rioya etishi, shaxsiy tarkib o'rtasida qonunchilikni mustahkamlash, xizmat va ijro intizomiga, yo'l harakati xavfsizligiga amal qilish yuzasidan xodimlar o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlari oli borilmoqda.

2023-03-07 17:29:30